

KELAJAKDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR

to‘Xtasinov Sherzodbek Shuxratbek o‘g‘li

“University of Economics and pedagogy” NOTM o‘qituvchi

Telefon: +99893 412 30 36

@mail:tukhtasinovs@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola iqlim o‘zgarishi va ekologik masalalar, atrof - muhit va tabiatni muhofaza qilish muammolari keskinlashib, o‘ta ziddiyatli tus olgan hozirgi davrda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatga keltirish zarurligini yoritadi. Tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik muammosi abadiy muammolardan biridir. Tabiat jamiyatning yashash muhiti, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy muammolar paydo bo‘lishini oldini olish maqsadida yozilgan ushbu maqola nazariy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Atrof-muhit, iqlim o‘zgarishi, ekologik iqtisodiyot, tabiat va jamiyat, qayta ishlash, ekologik muammolar, ekologik tarbiya, ekologik tizimlar, tabiiy resurslarni boshqarish.

FUTURE ENVIRONMENTAL PROBLEMS TOKHTASINOV
SHERZODBEK SHUKHRATBEK SON

"University of Economics and Pedagogy" NOTM teacher

Phone: +99893 412 30 36

@mail:tukhtasinovs@bk.ru

Annotation: This article highlights the need to bring the relationship between nature and society into balance in the current period, when climate change and environmental issues, environmental and conservation problems become acute and extremely controversial. The problem of interaction between nature, man and society is one of the eternal problems. This article, written in order to prevent the occurrence of economic problems in the satisfaction of the living environment of nature, its material and spiritual needs, includes both theoretical and practical aspects.

Keywords: Environment, Climate Change, , Environmental economy, nature and society, recycling, environmental issues, environmental education, environmental systems, natural resource management.



БУДУЩИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

Тохтасинов Шерзодбек Шухратбекович

Преподаватель НОТМ «Университет экономики и педагогики»

Телефон: +99893 412 30 36

@mail:tukhtasinovs@bk.ru

Аннотация: Эта статья проливает свет на необходимость уравнивания отношений между природой и обществом в нынешнюю эпоху, когда изменение климата и экологические проблемы, проблемы окружающей среды и сохранения становятся все более острыми и очень противоречивыми. Проблема взаимодействия природы, человека и общества одна из вечных проблем. В данной статье, написанной с целью предупреждения возникновения экономических проблем при удовлетворении природой среды обитания общества, его материальных и духовных потребностей, рассматриваются теоретические и практические аспекты.

Ключевые слова: окружающая среда, изменение климата, экологическая экономика, природа и общество, переработка отходов, экологические проблемы, экологическое воспитание, экологические системы, управление природными ресурсами.

KIRISH

Yoshlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirning oldini olish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish borasidagi bilimlarni o'zlashtirish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish borasidagi kabi nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qiladi

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 115-modda)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-sonli qarori bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tuzilmasida Situatsion boshqaruv markazi tashkil etildi. Bu markaz



ekologik holatni real vaqt rejimida monitoring qilish, atrof-muhitga zarar yetkazish holatlarini tezkor aniqlash va ularga samarali choralar ko'rish uchun mo'ljallangan.

Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e'lon qilish qarori qabul qilindi. Ushbu yil davomida ekologik toza iqtisodiyotga o'tish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni ko'paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish va chiqindilar muammosini hal qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, davlat dasturi loyihasi ishlab chiqilib, jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi. Ushbu dasturda “yashil” energetika, resurs tejamkor iqtisodiyot modeliga o'tish, sanoat va xizmat ko'rsatish majmualarida energiya samaradorligini oshirish kabi vazifalar belgilangan.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida 4 bevosita atrof-muhit va ekologiya, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, shuningdek, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, oziqovqat xavfsizligini ta'minlash, tuproq-iqlim sharoitiga mos, qurg'oqchilik, sho'rlik, issiqlik va kasalliklarga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlari navlari va hayvonot turlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish masalalari ta'kidlab o'tilgan.

1.1 Iqlim o'zgarishi va ekologik masalalar - Tabiat insonning barcha hayotiy ehtiyojlarini qondiruvchi noyob va betakror manbadir. Insoniyat va tabiat o'rtasidagi mavjud muvozanat esa shu qadar nozik, o'zaro bog'liq, o'zaro tobe va shunchalar zaifki, gohida u yoki bu inqiroz, falokat yoki halokatning ibtidosini ilg'ash juda mushkuldir.

Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, 2050-yilga kelib, sayyoramiz aholisi 8,0 mlrdga yetadi. Mavjud noekologik texnologiyalar sharoitida bu atrof-muhit sifatining keskin yomonlashuvi, suv va havo havzalarining keskin ifloslanishi, tabiiy resurslarining kamayishi, ko'plab murakkab iqtisodiy, energetik, oziq-ovqat hamda ijtimoiy-siyosiy muammolarga olib kelishini tushunish qiyin emas, hatto hozirda kunda bu kabi oqibatlarning shohidi bo'lmoqdamiz.

XXI asr chegarasida yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topish uchun zamonaviy muammolarni hal qilish va kelgusida ularning oldini olishga yo'naltirilgan barqaror taraqqiyot konsepsiyasi ishlab chiqildi. “Barqaror taraqqiyot” atamasi (Sustainable Development) ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, uni turg'un, qo'llab-quvvatlanayotgan, avaylanayotgan, 6 davomli, uzluksiz rivojlanish deb tarjima qilish mumkin. Adabiyotda ushbu tushunchaning yuzdan ortiq ifodalarini uchratish mumkin. Uning ko'p



ishlatiladigan ifodasi 1987-yilda e’lon qilingan “Bizning umumiy kelajagimiz” mavzusidagi ma’ruzada keltirilgan. Unga ko’ra, “Barqaror taraqqiyot” deganda hozirgi avlod hayotiy ehtiyojlarini kelgusi avlodlar ehtiyojlarini qondirishga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladigan rivojlanish tushuniladi.

Hozirgi kunda butun dunyoda keng miqyosda tan olingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi 1992-yilda Rio de Janeyroda tashkil qilingan, dunyo mamlakatlari rahbarlarining eng yirik uchrashuvlaridan biri sanalgan yig’ilishda tasdiqlangan.

Mazkur forumda ishtirok etgan 179 mamlakatning siyosiy va diniy rahbarlari, yuqori lavozimdagi vakillari o’zlariga istiqbolda jahon taraqqiyotini barqarorlashtirish majburiyatini oldilar va bu iqtisodiy o’sishni to’xtatib qo’yishni emas, balki kelgusi avlodlarning katta miqdordagi ehtiyojlarini ko’zda tutadi.

Agar insoniyatning barcha tarixiy tamadduni davomida butun tabiat va uning resurslari cheksiz va bitmastuganmasdek ko’ringan bo’lsa, sanoat taraqqiyoti davri, ya’ni oxirgi ikki asr bunday tasavvurning butunlay xato ekanligini isbotlab bergani tobora aniq va ravshan bo’lib bormoqda.

1. Iqlim o’zgarishi

Kelajakdagi eng katta ekologik muammolardan biri — global isish. Atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidrid va boshqa parnik gazlari Yer haroratining ko’tarilishiga olib kelmoqda. Bu jarayon davom etsa:

qurg’oqchiliklar ko’payadi,

muzliklar tez eriydi,

dengiz sathi o’sadi,

kuchli bo’ronlar, suv toshqinlari va issiq to’lqinlar soni ortadi.

Bu o’zgarishlar insonlarning yashash hududlarini qisqartirib, qishloq xo’jaligiga katta zarar yetkazishi mumkin.

2. Suv tanqisligi

Aholi sonining oshishi, sanoatning kengayishi va iqlimning isishi tufayli toza ichimlik suvi resurslari kamayib boradi. 2050-yilga borib dunyoning bir qancha mintaqalari suv tanqisligiga duch kelishi prognoz qilinmoqda. Suv yetishmasligi oziq-ovqat ishlab chiqarishiga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi.

3. Atmosfera ifloslanishi

Kelajakda avtomobillar sonining ortishi, sanoat chiqindilari va energiya iste’moli havoni yanada ifloslantirishi mumkin. Bu esa:

nafas olish kasalliklari,

yurak-qon tomir xastaliklari,

bolalarda allergik holatlar kabi jiddiy sog’liq muammolariga olib keladi.

4. Chiqindilar va plastik muammosi



Plastik chiqindilar butun dunyoda keskin oshib bormoqda. Tabiatda juda sekin parchalanadigan plastik moddalar:

daryolar va okeanlarni ifloslantiradi,
hayvonlar hayotiga xavf tug'diradi,
tuproqning tabiiy tarkibini buzadi.

Kelajakda chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'ladi.

5. O'rmonlarning kamayishi

Aholining ehtiyojlari va qishloq xo'jaligi yerlarining kengayishi sabab ko'plab o'rmonlar kesilmoqda. O'rmonlarning kamayishi:

kislorod ishlab chiqarilishini pasaytiradi,
hayvonot dunyosining yo'qolishiga olib keladi,
iqlim o'zgarishini tezlashtiradi.

6. Biologik xilma-xillikning kamayishi

Ko'plab o'simlik va hayvon turlari yo'qolib ketish xavfi ostida. Ekotizimlarning buzilishi kelajakda oziq-ovqat zanjiri va tabiiy resurslar barqarorligiga zarar yetkazishi mumkin.

Ma'lumot uchun. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2030-yilga borib, global isish tufayli jahon iqtisodiyotiga yiliga 2 trillion AQSh dollari miqdorida zarar yetishi mumkinligini ma'lum qildi. Ma'lumki, iqlimning o'zgarib borishi va uning atrof-muhitga ta'siri XXI asrning eng asosiy muammolaridan biri bo'lib insoniyat oldida turgan jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Bunda antropogen holatning faol ta'siri ostida tuproq qatlami va biologik xilma-xillikni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega.

1.2. Atrof-muhit muammolari yuzaga kelishida iqtisodiyotning roli

Odamlarning atrofdagi tabiiy muhitga munosabati hamda jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar mohiyatini tushuntiruvchi bilimlarga bo'lgan ehtiyojlar juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Ekologiya fanining yuzaga kelganiga ham 150 yildan ortiq bo'ldi, ammo alohida fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan rivojlanib kelmoqda.

Amerikalik olim Ch.Adams (1913) ekologiya to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, chop ettirdi. Ekologiyada organizm bir butun tizim sifatida ko'riladi. U tashqi muhit bilan o'zaro birgalikda harakatlanadi, bir-biriga yordam qiladi. Bugungi kunga kelib, ekologiya sof biologik fanlar tizimidan ajralib chiqib, mazmuni kengayib bormoqda. Atrof-muhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida ekologiya tushunchasi o'ta kengayib keldi.

Insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. Ekologiya fani tabiat bilan tirik organizmlarning uzviy bog'lanishini



ifoda etar ekan, u, shubhasiz, tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asosini tashkil etadi.

XX asrning ikkinchi yarmida odamning tabiatga ta'siri va atrof-muhit ifloslanishining keskin kuchayishi tufayli ekologiya alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bosqichi XX asrning 50-yillaridan hozirga qadar boshlanadi. Ekologiya mazkur bosqich ibtidosida tabiiy muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanishga oid bilimlarni o'z ichiga olgan majmuaviy fanga aylanib, tegishli geografik, geologik, kimyoviy, fizikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy tushunchalarni ham o'zida mujassamlaydi.

O'zbekistonda ekologik yo'nalishdagi ishlarning asoschilari D.N.Kashkarov va E.P.Karovin hisoblanadi. Ekologiya rivojining mazkur bosqichida A.Abulqosimov, Z.Akramov, L.Alibekov, P.Baratov, T.Jumayev, K.Zokirov, T.Zohidov, A.Muzaffarov, A.Muhamadiev, M.Muxamedjanov, S.Nishonov, A.Rafiqov, M.Rasulov, A.Saidov, Y.Sultonov, M.Umarov, J.Xolmo'minov, Y.Shodimetov, A.Ergashev, P.G'ulomov kabi o'zbek olimlari tomonidan ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanishning turli jihatlari chuqur tadqiq etilgan

Bugungi kunda jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabati borgan sari murakkablashib, “odam-tabiat-xo'jalik-atrof-muhit” tizimida ekologik xavfsizlikni ta'minlash ko'p omilli jarayonga aylanmoqda. Aslida ekologik xavfsizlik eng yuksak bioijtimoiy qadriyat – odam va tabiatdagi tirik mavjudotlar hayotining himoyalanganlik holatidir.

Bu, eng avvalo, chiqindisiz, kamchiqitli va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhit muhofazasining ekologik asoslari va iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish, ekologik huquqbuzarlik yuzasidan choralar ko'rish hamda fuqarolarda ekologik bilim va tafakkurni shakllantirish orqali barqaror taraqqiyotni ta'minlash masalasi bo'lib, ular umumiy ekologiya fani va atrof-muhit muhofazasi faoliyatining eng dolzarb amaliy vazifalariga aylangan.

1.3. Ekologik iqtisodiyot va atrof-muhit

Ekologiya fani biologiyadan ajralgan holda mustaqil ravishda juda keng miqyosda rivojlanib borayotgan makroekologik fanga aylandi. Uning tarkibida bir necha mustaqil bo'limlar yoki ilmiy yo'nalishlar mavjud. Bularning barchasi ekologiyaning boshqa fanlar bilan yaqindan aloqada bo'lishi, o'z navbatida, ularni ekologiyaning tadqiqot usullaridan foydalanib, mavjud masalalarni muvaffaqiyatli hal qilayotgani bilan bog'liq.

Inson ekologiyasi – insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. Inson ekologiyasi yangi fan sifatida 1921-yil amerikalik olimlar Borjes va Park tomonidan kiritilgan.



Dastlabki inson ekologiyasi tibbiy soha bo'limi sifatida qaralib, keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, ma'muriy, iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o'rganildi. Inson ekologiyasi insonni atrof-muhitga va aksincha, muhitning insonga ta'sirini o'rganadi.

Ijtimoiy ekologiya inson ekologiyasini o'rganish natijasida vujudga keldi. Unga birinchi bo'lib, Raderik Mak Kenzil ta'rif bergan. Bu fan ijtimoiy fanlardan biri hisoblanib, uning predmeti inson bilan uning atrof-muhit o'rtasidagi xususiy bog'lanishlarini 26 o'rganishdan iborat. Ya'ni jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi turli ekologik munosabatlarni o'rganadi.

O'zbekistonda tabiat muhofazasi to'g'risidagi qonunlar, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo'yilgan vazifalar va talablarga muvofiq jamiyatning ekologik madaniyatini, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadlarida uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiyaning ommaviy va kompleks tizimi izchil amalga oshirilmoqda.

Ekologik holatning oldini olish maqsadida inson ekologik madaniyat to'g'risidagi bilimlarni chuqur egallashi kerak bo'ladi. Ya'ni ekologiya bo'yicha madaniyatli inson, avvalo, tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetishi zarur, o'z faoliyati ta'sirining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olishi darkor. Shu ma'noda ekologik madaniyat umuminsoniy ma'naviyatning moddiy hamda axloqiy faoliyat mahsuli sifatida aks etgan tarkibiy qismi ekanini anglab yetishi lozim.

Ekologik madaniyat tarqqiyoti, o'z navbatida, ekologik ta'limtarbiya hamda ma'lumotlarni aholi o'rtasida ma'rifatning hamma usullaridan foydalanib, ommaga yetkazish bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kelajakdagi atrof-muhit muammolari — bu faqat ekologlar yoki hukumatlarning emas, balki har bir insonning mas'uliyatidagi masaladir. Resurslardan oqilona foydalanish, ekologik texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va tabiatga e'tiborli bo'lish orqali global muammolarning oldini olish mumkin.

Tabiatni sevish va uni asrash madaniyatini shakllantirish yosh avlodni tarbiyalashning muhim jihatlaridan biridir. O'quvchilarga ekologik tarbiya berish orqali ularni atrof-muhitni muhofaza qilishga o'rgatish mumkin. Bu esa nafaqat bugungi kunimiz, balki kelajak avlodlar uchun ham barqaror ekologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish iqtisodiyotning bosh maqsadlaridan biridir. Resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha jahon tajribasi ushbu jarayon uzoq muddatli davrni talab etishini, katta miqdordagi investitsiyalarning zarurligini hamda ustuvor e'tibor qayta



tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish va energiya tejamkor texnologiyalarni rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent O‘zbekiston 2023 -31b
2. “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tuzilmasida Situatsion boshqaruv markazi tashkil etish” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-sonli qarori
3. “Atrof - Muhit va Tabiiy Resurslar Iqtisodiyoti” – Mualliflar: I. Xotamov, M. Sultanov, A. Yadgarov chop etilgan: 2021 yilda. (Atrof - muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti. Darslik «Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi», 2021. 312 bet.)
4. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>
5. Yusupjonovna S. E. TREATMENT APPROACHES FOR SENSORINEURAL HEARING LOSS //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 157-158.
6. Yusupjonovna, S. E. (2025). TREATMENT APPROACHES FOR SENSORINEURAL HEARING LOSS. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 2(5), 157-158.
7. Shodieva, E. (2024). OTOMYCOSIS DISEASE AND ITS ETIOTROPIC TREATMENT METHODS. Science and innovation, 3(D1), 155-161.
8. Усманова, Н. А., & Шодиева, Э. Ю. (2021). ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ ТЕРАПИИ ОТОМИКОЗА. Re-health journal, (2 (10)), 97-99.
9. Shodieva, E. (2024). OTOMYCOSIS DISEASE AND ITS ETIOTROPIC TREATMENT METHODS. Science and innovation, 3(D1), 155-161.

